

# Rossiyalik kardiojarrohlar Surxondaryoda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishmoqda



Rossiyalik kardiojarrohlar Surxondaryoda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishmoqda

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya tibbiy-amaliy ilmiy markazining Surxondaryo viloyati filialida Rossiyaning Novosibirsk shahrida joylashgan Meshalkin nomidagi qon aylanish patologiyalari ilmiy tekshirish instituti kardiojarrohlari Vitaliy Baystrukov va Sardor Rahmonov mahalliy hamkasblari bilan birgalikda kardiojarrohlikda eng murakkab hisoblanadigan qon tomirlarini stendlash amaliyotini o'tkazmoqda.

Bu esa Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov boshchiligidagi delegatsiyaning shu yil avgust oyida Rossiya Federatsiyasiga safari chog'ida vohada kardioxirurgiyani rivojlantirish, murakkab jarrohlik amaliyotlarini hamkorlikda amalga oshirish, mutaxassislarni o'qitish, o'zaro tajriba almashish yuzasidan Novosibirsk shahrida

joylashgan Meshalkin nomidagi qon aylanish patologiyalari ilmiy tekshirish instituti hamda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya tibbiy-amaliy ilmiy markazi Surxondaryo filiali o'rtasida tuzilgan shartnomaning amaliy samarasidir. Surxondaryolik mutaxassislar bilan hamkorlikdagi yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlarimiz muvaffaqiyatli o'tmoqda, – deydi Vitaliy Baystrukov. – Malakali shifokorlar bilan ishlash bizga zavq bag'ishlayotir. Tibbiyot hamshiralarning jarrohlik amaliyotidagi ishi ham yuqori darajada. Bu yerdagi sharoit va imkoniyatlar tahsinga loyiq. Tibbiyot hamshiralarning jarrohlik amaliyotidagi ishi ham yuqori darajada. Dori-darmon bilan ta'minlash ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Yaqin yillargacha kardiologiya sohasida murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish nafaqat viloyatda, balki Respublika miqyosida noyob hodisa hisoblanardi. Bu borada hatto xorijiy mamlakatlarning malakali mutaxassislariga murojaat qilinardi. Bugungi kunda sohaga berilayotgan yuksak e'tibor tufayli ularga ehtiyoj keskin kamaygan. Barcha jarrohlik amaliyotlari va davolash ishlari viloyatimizning o'zida bajarilmoqda. Bu esa bemorlarga bir qator qulayliklarni yaratmoqda.

Shifoxonaga nafas olganda ko'krak sohasida sanchiqli og'riq, nafas olish yetishmovchiligi, tez holsizlanish alomatlari bilan kelgandim, – deydi muzrabotlik Feruza Hasanova. – Muvaffaqiyatli o'tgan murakkab jarrohlik amaliyotidan so'ng o'zimni juda yaxshi his etmoqdaman. Tetikman. Odamlar sog'lig'i haqida qayg'urayotgan, shunday sharoitlarni viloyatimizning o'zida yaratib berayotgan Yurtboshimizga rahmatlar aytaman.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, yurak qon-tomir kasalliklarining ba'zilarini yopiq yo'l bilan operatsiya qilish orqali davolash mumkin. Biroq, yurak klapanlari bilan bog'liq murakkab patologiyalarni faqat ochiq operatsiya usulidagina bartaraf etish mumkin. Bu jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish uchun qo'shimcha zamonaviy tibbiy sharoitlar va malakali mutaxassislar hamkorligi talab etiladi.

Ayni paytda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya tibbiy-amaliy ilmiy markazining Surxondaryo viloyati filialida ochiq usuldagi ana shunday kardiojarrohlik amaliyotlarini o'tkazish sharoitlarini yaratish bo'yicha Meshalkin nomidagi qon aylanish patologiyalari ilmiy tekshirish instituti kardiojarrohlari bilan kelishib olindi.

Bir so'z bilan aytganda, o'zaro hamkorlik filial shifokorlariga rossiyalik hamkasblari bilan muntazam tajriba almashish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa aholi salomatligini yanada mustahkamlashga, mahalliy mutaxassislarning yuqori texnologiyaga asoslangan eng murakkab kardiojarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli o'tkazishdagi tajribalarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

